



## FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KANONIK MODELLI GAPLARNING XUSUSIYATLARI

*Bobokalonov Po‘lotshoh Ramazonovich, BuxDU fransuz*

*filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi*

*Shodiyeva Ferangis Fozil qizi, BuxDU iqtidorli talabasi*

### **Annotatsiya:**

Fransuz va o‘zbek tillaridagi kanonik modeli nutqiy hosilalar va semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplarning farqli va o‘xshash jihatlari system-struktur, lingvodidaktik va komparativ tahlili asosida hozirga qadar aniqlashtirilmagan. Mazkur maqola oldida substansial (formal-funksional) tadqiq usuli asosida leksik-semantik va morfosintaktik birliklarning zotiy tabiatini o‘rganish maqsad qilib qo‘yilgan.

**Tayanch so‘z va iboralar:** system-struktural ; lingvodidaktik va komparativ tahlil ; kanonik modeli nutqiy hosila, lingvodidaktik, psixolingvistik va sotsiolingvistik faktorlar ;

### **Kirish**

Jahon tilshunosligi izidan odimlab borayotgan o‘zbek tilshunosligida so‘z-gaplar sintaksisi yuzasidan XX asrning 60-yillariga qadar jiddiy izlanishlar olib borilmagan edi. Faqatgina 40-50-yillarga kelib o‘zbek tilshunosligida taqlidiy so‘zlar undovlarning bir ko‘rinishi sifatida G‘arb sintaksisi muvozanatida o‘rganildi. So‘z-gaplarni dastlab, professor A.G‘ulomov “Bo‘laklarga ajratilmaydigan gaplar” mavzusi doirasida tahlil qildi. So‘z-gaplar muammosiga bag‘ishlangan tadqiqotlar bilvosita A.N.Kononov va bevosita S.Usmonov, Sh.Rahmatullayev, R.Rasulov, R.Sayfullayev, H.Boltaboyeva, S.Saidov, E.Shodmonov, I.Toshaliyev, A.Boboyeva, R.Qo‘ng‘urov, G‘.N.Zikrillayev, R.A.Kamiljanova, B.O‘rinboyev, R.M.Mo‘minova, O‘.Lafasov, A.Hazratqulov, M.Maqsudovalar tomonidan amalga oshirildi. O‘tgan asrning 80-yillaridan boshlab, H.G‘.Ne‘matov, R.R.Sayfullayeva, A.Nurmonov, R.Bobokalonov va boshqalarning tadqiqotlarida zamonaviy qarashlar paydo bo‘ldi [Bobokalonov R.].

Noqardosh fransuz va o‘zbek tillarida semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplar va kanonik modeli nutqiy hosilalarning iyerarxik o‘svuchanligi, valentlik darajasi qiyoslab o‘rganilmagan. Shuningdek, semantik-funksional shakllangan so‘z-gaplar va atipik gaplarning farqli xususiyatlarini aniqlashtirish, nutqiy hosilalarning tolerantlik ruhiyatiga ta’sir etuvchi leksik-grammatik belgilari lingvodidaktik, lingvomadaniy, kommunikologik va neyropsixolingvistik qonuniyatlari kognitiv, lingvistik, pragmatik, intralingvistik va ekstralingvistik qiymat nuqtai nazaridan tahlil qilinmagan.

Ayni vaqtda kanonik modeli gaplarning tadqiqi borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar fransuzcha-o‘zbekcha so‘z-gaplarning system-struktur, lingvodidaktik va komparativ tahlili, oraliq uchinchida turgan nutqiy hosilalarning geterogen (xilma-xil), formal-funksional, leksik-semantik





jihatlariga e'tibor qaralilib, bunday gaplarning alohida belgilari va xususiyatlari yuzasidan alohida tadqiqot amalga oshirildi. Bunda so'z-gaplarni kommunikativ, formal-funksional, lingvodidaktik asosda talqin qilish, ularning o'ziga xos g'ayritabiiy xususiyatlarini lison//nutq ziddiyatida pragmatik tahlil qilish imkoni yaratildi.

### Asosiy qism.


O'zbek system tilshunosligining substansial talqini H.G'.Nigmatov, I.Qo'chqortoyev, A.Nurmonov, K.M.Abdullayev, V.I.Banaru, N.M.Mahmudov, A.Nurmonov, R.Rasulov, R.Sayfullayeva, M.Abuzalova, O.Bozorov, R.Safarova, A.R.Sayfullayev, M.Qurbonova, Sh. Shahobiddinova, M.Bashmanov, A.Berdialiyev, B.Mengliyev, Sh.Akramov, L.Raupova, R.Bobokalonov, S.Nazarova, R.Xidirov, D.A.Muhammedova, T.Madrahimov va boshqalar tadqiqot ishlarida atroflicha o'rganilgan. Leksik va sintaktik hodisalarda substansial (lot.substantia-mohiyat) hamda aksidensial (yunon. g'ayritabiiy, hayratlanarli, tushunarli, bahs talab etmaydigan haqiqat) jihatlar borligi farqlangan. O'zbek tili substansional grammatikasi lison//nutq farqiyatida gaplarning sinxron tahlili, sintaktik birliklarning "oraliq uchinchi" muammosi ilmiy tahlilga tortilgan, ya'ni M.Abuzalova va R.Bobokalonovlar tomonidan gapning eng kichik qurilish qolipi [WPm] va [W<sup>P</sup>] kesimlik qolipi muammosi hal etilgan. [W<sup>P</sup>] kesimlikning implisit ko'rinishi, ierarxik va graduonomik masalalari, leksik va sintaktik tarzi, sintaktik qurshovi, so'z-gaplarning kengayishi o'rganilgan. [WPm] sodda gap qolipi [W] atov birligi [Pm] vositalari kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichlari majmui bilan belgilangan [1; 2]. Biroq G'arb tilshunosligi formal grammatikasida ikki tarkibli gapning lisoniy qolipi ( $[S \leftarrow P] = [ega \leftarrow kesim]$ )da subyektning hokimligi, predikatning subyektga tobeligi mantiqiy hukm ostida rivojlantirilgan va saqlanib qolgan. Jumladan, fransuz tilida so'z-gaplar bilvosita Malberg Bertil, Andre Martine, Lusyen Tenyer, Sharl Balli, Gustav Giyom tadqiqotlarida, bevosita esa Andre Juyet, Klod Jerman, Martin Rejel va boshqa tilshunos olimlar ilmiy asarlarida birmuncha yangi talqinda e'tiborga olingan [3].

Ma'lumki, zamonaviy lingvistikada Ferdinand de Sossyur semiotik ta'limotining o'rni, o'zbek tilida gapning sintaktik tahlili, lison//nutq dixotomiyasi zanjirida lisoniy qolip va avtomatlashgan nutq formulasining ahamiyati, lison//nutq qurilishi va diskurs masalalari sinteziga ilmiy munosabat bildirilgan. Sintaktik sathda paradigmatic, sintegmatik va distributive aloqadorlik, gapning mantiqiy talqini, fransuz va o'zbek tilida kanonik modelli gaplarning paradigmatic xususiyatlari, gap tarkibidagi unsurlarning obyektiv va substansional qiymati, Andre Martinening "Funksional tahlil" ta'limoti, Lyusyen Tenyerning "aktant" nazariyasi asosida kanonik modelli nutqiy hosila atipik gap turi sifatida tahlilga tortilgan va ularning kesimlilik hamda valentlikka aloqadorligi misollar asosida tahlil qilingan [4].

So'z, so'z birikmasi va gaplar lison//nutq dixotomik ziddiyatida atroflicha o'rganilgan. M. Abuzalova fikricha: "Lison//nutq sathida kesimlik bu – lison//nutq sathida kesimlik, bu – leksik shaklning morfologik ko'rsatkichlar bilan shakllangan atov birligidir. Kesimlik kategoriyasi gapning "joni" – markazini tashkil etuvchi kategoriyadir [1].". Shundan kelib chiqib, gap qolipi lisoniy tamoyil sifatida nutq hosilasining tashkil etuvchisidir, ya'ni [WPm]ning kesimlik ko'rsatkichlari: [N+M+T+P] ga – tasdiq/inkor – [N], mayl/modallik – [M], zamon – [T] va shaxs/son– [P] kabi kesimlik ma'nolariga egadir. Nutqiy hosila diskurs bilan uzviy bog'liq holda o'nlab: *darak, so'roq, buyruq, undov, his-hayajon, so'roq-undov* va shuningdek,  *ritorik ohang, intonatsiya, tana harakati,*



*imo-ishora* va hokazo sintaktik ko'rsatkichlarga ega bo'lishi mumkin. Diskursda *neytral*, *gumon*, *ishonch*, *taxmin*, *taajjub* kabi qo'shimcha ma'nolar hamrohlik qiladi. Shunga muvofiq o'zbek tilida gaplarning shakllanish usuliga ko'ra: 1. Grammatik shakllangan gaplar - [WPm] va 2. Semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar – [W<sup>P</sup>] farqlandi.



Til tizimida paradigmatic va sintagmatik virtual belgilariga ega bo'lmagan o'zbek tilidagi [W<sup>P</sup>] qolipli so'z-gaplarni fransuz tilidagi kanonik modeli gaplarga muqobil qo'yib o'rganish mumkin [2]. Ilmiy kuzatishda fransuz tilshunosligida kanonik modeli nutqiy hosilalar ikki xil – “kanonik” (“*la phrase canonique*”) va “atipik” terminlari bilan ilmiy muomalaga kiritilgani uchraydi. Shular bilan birga, A.Martining funksional tahlil nazariyasida nutqning eng kichik birligi “monema” tushunchasi va Lyusyen Tenyerning “*aktant*” nazariyasi so'z-gaplar uchun muhim ahamiyat kasb etgan.

Kanonik modeli nutqiy hosilalarda sintaktik valentlik ham uchrab turishi, fe'lga xos valentlik mjunosabati borligi kesimlik doirasida o'rganildi. O'zbek tilida “dod” leksemasi zanjirida iyerarxik o'suvchanlik, leksik-sintaktik kengayish va darajalanish mavjud (Dod → *Voy dod* → *E voy dod* → *Zolimlarning dastidan dod* → *Ey falak, bu zolimlarning dastidan dod!*) bo'lsa, fransuz tilidagi nutqiy hosilalar (1. *Voilà* → *Voilà qu'il neige!* → *Ne voilà pas.* → *Ne voilà pas qu'il revient?* 2. *C'est claire.* → *C'est bien claire;* 3. *C'est possible* → *C'est encore possible*; 4. *Il est nécessaire* – *Il est très nécessaire*)da ham buni kuzatish mumkin. Fransuz tili so'z-gaplarida zamon paradigmasi (*C'est possible* → *C'était possible*- *C'est possible* → *Ce n'est pas possible.* *C'est impossible*) ko'p uchraydi. Ayrim holatda o'zbek tilida ham so'z-gapning (*Ajoyib, ajoyib ekan, ajoyib edi*) bog'lama bilan kelishi kuzatiladi. Bu hodisa alohida tadqiqotni talab etadi.

Kanonik modeli nutqiy hosilalarning tipik gaplardan farqi, o'xshashlik jihatlari, xoslik va ziddiyati, ularning leksik-semantik darajalanishi, gaplarning binar qurilishi, prezantativ nutqiy hosilalarning o'ziga xos jihatlari, ularning interkulturalogik, lingvopsixologik, neyrolingvistik va lingvodidaktik ahamiyati, semantic-funksional shakllangan so'z-gaplar va kanonik modeli nutqiy hosilalarning tolerantlikka xos lingvodidaktik o'rni, “sabr” leksemasi zanjiri misolida tolerant kanonik modeli nutqiy hosilalar leksik maydoni, ularning inson ruhiyatiga ta'siri borligi isbotlandi. Kanonik modeli fransuzcha-o'zbekcha gaplarning qiyoslashda “*sintaksema*”, “*monema*”, “*aktant*”, “*valentlik*” atamalariga murojaat qilindi. Andre Martine funksional tahlil nazariyasida “*monema*” terminini ishlatgan, Lusyen Tenyer esa gapga nisbatan “*aktant*” atamasini qo'llagan. O'zbek tilidagi “bo'laklarga ajratilmaydigan gaplar” tushunchasi ham fransuz tilidagi “atipik” yoki “kanonik” gaplar atamasi deyarli yaqin turadi. Semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar va kanonik modeli nutqiy hosilalarning integral belgilari o'xshash: 1. Mustaqil holda gap bo'ladi; 2. Gap tarkibidagi biron bo'lak bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi; 3. O'zgaruvchan g'ayrioddiy ma'noga ega. 4. Mayl-munosabat, zamon va shaxs-son shakllariga ega bo'lmaydi va odatda bog'lama qabul qilmaydi.





Masalan, fransuz tilida: 1. *Bonjour, comment allez-vous?* 2. *Salut, ça va ?* 3. *Au revoir - à bientôt - à plus !* 4. *Oui – Non.* 5. *C'est génial ! – C'est nul !* 6. *S'il te plaît, merci, de rien.* 7. *Une cigarette ? – Oui.* 8. *Ça ne me dit rien...* 9. *Bon appétit !* 10. *Mmh, c'est bon.* 11. *Beurk, je n'aime pas.* 12. *Ça te va très bien !* 13. *J'ai envie de toi !* 14. *Pardon.* 15. *Tshin-tshin ! A votre santé ! A ta santé !* 16. *Oh là là !!!* kabi kanonik nutqiy hosilalar ko'p uchraydi.

### Xulosa

Fransuz tilidagi geterogen sintaktik hodisalar o'zbek tilidagi [W<sup>p</sup>] lisoniy qolipli semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar o'xshash bo'lganligi uchun ularni yagona kanonik modelli nutqiy hosila tushunchasi ostida sintez qilish mumkin. Har ikki tildagi kanonik modelli nutqiy hosilalarning inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi lingvodidaktik, psixolingvistik va sotsiolingvistik faktorlari mavjud. Bir-biridan farqli tillarda kanonik modelli gaplarning qiyosiy-tipologik aspektida o'rganilishi fransuz tilini o'qitilishiga yo'l ochib beradi.

O'zbek tillaridagi semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar va fransuz tilidagi kanonik modelli nutqiy hosilalar integral belgilarining o'xshashligi ularning mustaqil gap shaklida kelishida, gap bo'laklarining sintaktik aloqaga kirmaslik tabiatida, o'zgaruvchan, g'ayrioddiy ma'no kasb etishida, mayl-munosabat, zamon va shaxs-son shakllariga ega bo'lmasligida, bog'lamalarni qabul qilmaslikda namoyon bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abuzalova M. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi. FFNDA. – T.:1994. 22-b;
2. Bobokalonov R. O'zbek tilida gap sintaksisi va so'z-gaplarning system-struktur talqini. Monografiya. –T.: Fan, 2006.-3-127.;
3. Бобокалонов Р.Р. Нуткий ҳосила, семиотик белги, дискурс ва нейрпсихоллингвистик ҳолат. Монография, GlobeEdit, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023234 с. ISBN 978-620-0-64729-0.
4. Бобокалонов Р.Р. Неразрывная связь семиотики и нейрпсихоллингвистики. Монография, Lambert Academic Publishing, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023. 156 с. ISBN: 978-620-6-16018-2.
5. Malmberg Bertil. Les Nouvelles tendances de la linguistique. Presses Universitaires de France, 108, Paris. 1972.
6. Sayfullayeva R.R., Bobokalonov R.R. Neyropsixolingvistika: lingvistik shaxs va xarizmalı inson. Globedit, Kshinyov, 2023 ISBN: 978-620-0-64878-5

